

ESHQOBIL SHUKUR SHE'RIYATIDA BADIY SAN'ATLAR

Nosirova Setora Narzulla qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, o'zbek tili va adabiyoti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20562449>

Annotatsiya. Ushbu maqola Eshqobil Shukur she'riyatidagi badiiy san'atlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ijodkor she'rlari tashxis, talmeh, tazod, tavze, takrir, tashbeh, jonlantirish kabi san'atlar vositasida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy san'atlar, tashxis, talmeh, tazod, tavze, takrir, tashbeh, jonlantirish, "Qadimiy qo'shiq", "Gina", "Oysulton".

Badiiy san'atlar she'riyatning go'zalligi va sirliligini ta'minlovchi badiiy vositalardir.

Uzoq yillik tarixga ega bo'lgan, san'at nomini olgan badiiylik vositalari faqatgina she'r bezagi emas, balki shoir xohish va istagini o'quvchiga yetkazuvchi vosita, muallifning rangin tuyg'ular olami haqida tasavvur uyg'otuvchi manba yoki shoir ko'nglini kitobxon didi va zavqi bilan bog'lovchi ma'naviy rishta hamdir. Mahoratli ijodkor Eshqobil Shukur she'riyatida ham mana shunday takrorlanmas ma'naviy rishtalarning eng sara namunalarini guvohi bo'lishimiz mumkin. Shoir she'rlarida bir qanda she'riy san'at turlaridan mahorat bilan foydalangan.

Jumladan, *tashxis, talmeh, tazod, tavze, takrir, tashbeh* kabi she'riy san'atlarni keng va unumli tarzda qo'llagan. Quyida shoir she'rlaridagi badiiy san'at turlaridan namunalarni ko'rib chiqamiz.

Eshqobil Shukur she'rlarida, asosan, ramziylik, ko'chma ma'no yetakchilik qilgani uchun ham shoir ijodida tabiat tasvirini ko'p uchratamiz. Shoir bu tasvirlarni shunchaki keltirmaydi – ularni jonlantiradi, tilga kirgizadi, va bu jarayonlar adabiyotimizdagi *Jonlantirish* – odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni jonsiz narsalar, tabiat hodisalari, hayvon, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali hosil bo'ladigan tasvir usulini keltirib chiqaradi. Shu o'rinda shoir ijodida jonlantirishning ikki xil turini ham kuzatishimiz mumkin: 1) *Tashxis* – jonsiz narsalarni jonlantirish. Masalan, shoirning "Qadimiy qo'shiq"¹ deb nomlangan she'ri boshdan oyoq tashxis asosida qurilgan:

*Mening manglay sochimni
Tong shamoli qayirdi,
Ayta qolgin, shamoljon,
Jon shamoli qayerda?*

Ushbu misralarda shamol obrazi tashxis san'atini yuzaga keltirmoqda (tong shamoli qayirdi).

*Sahar-sahar yuragim
Shudring kechib sayrda,
Aytgin endi, saharlar,
Dil sahari qayerda?*

Yuqoridagi misralarda esa tashxis san'atini yurak obrazi yuzaga keltirmoqda (yuragim shudring kechib sayrda).

Yuqorida keltirilgan she'rdagi misralarda shoir shamol, yurak, oqbulut kabi obrazlarni jonlantirishga uringan bo'lsa, quyidagi shoirning "Gina" nomli she'ridagi tashxislar kengroq tushunchalar, ya'ni shoir ichki ruhiyati bilan dunyoning hamnafasligi barobarida yuzaga keladi:

Aqlim, har lahzada g'avg'o qilursan,

¹ШукуровЭ. Хамал айвони. –Тошкент: Шарк, 2002. –Б. 153.

*Ruhim tuproq birla savdo qilursan.
Bo'ynimga osilib nozlanur dumyo,
Nafsim nafasidan bezanar dunyo².*

Ushbu misralarda esa tashxis *aql* (har lahzada g'avg' o qilursan), *ruh* (tuproq birla savdo qilursan) hamda *dunyo* (nozlanur, bezanar) kabi obrazlar orqali maydonga kelgan.

Jonlantirishning ikkinchi turi bu – *Intoq*, ya'ni nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash san'atidir.

Shoirning bir qator she'rlarida, jumladan “*Oysulton*” nomli she'rida jonlantirishning nutqiy ko'rinishini ko'rishimiz mumkin:

*....Toshday sadoqating haqda kuylaydi
Torlarday titragan tosh tolalari (toshlarning kuylashi)
She'ring so'nggida:
....Sening shodlik rangli lablaring bilan
Mening ko'zlarimda dunyo kuladir (dunyoning kulishi).*

Shoir ijodidagi asosiy she'riy san'at turlaridan yana biri bu – *Tashbeh* (*ar.o'xshatish*) – biror obraz yoki voqeani boshqa biror narsa yoki voqeaga qiyoslash orqali o'xshatishdir.

Eshqobil Shukur ijodining deyarli barcha qismi mana shu san'at asosida qurilganini kuzatishimiz mumkin.

Chunki shoir hayotga doimo falsafiy nigoh bilan qaraydi. Nimanidir qalamga olar ekan, shunchaki tasvirlashdan ko'ra uni nimagadir qiyoslab tasvirlaydi. Quyida shoir ijodidagi ushbu san'at asosiga qurilgan ayrim she'rlardan namunalar ko'rib o'tamiz.

Shoirning “*Hurriyat*”³ nomli she'rida:

*Tol beshikka gulday tayangan singlim,
Sahar-sahar qushday uyongan, singlim.*

Ushbu misralarda gul va qush so'zlari -day – o'xshatish vositasi orqali tashbehni yuzaga keltirmoqda.

Shoirning yana bir she'ri – “*Xalq ohangida*” ham tashbehning bir qancha namunalarini ko'rishimiz mumkin:

Oybulutning orasidan oyday kelinlar kelar,

Kunbulutning orasidan kunday kelinlar kelar, – misralarda tashbeh oy va kun so'zlariga o'xshatish vositasi bo'lgan -day qo'shimchasining qo'shilishi orqali yuzaga kelmoqda.

Taram-taram sochlar, mana, boylar ko'ngilni

Qalam-qalam qoshlar yana naylar ko'ngilni, – ushbu misralarda o'xshatish “taram sochlar” va “qalam qoshlar” birikmalari orqali o'xshatish vositasi tushirib qoldirilgan holda yuzaga kelmoqda (taram-taram qilib taralgan sochlar, qalamday chizilgan qoshlar).

Shoir ijodida alohida ko'zga tashlanadigan badiiy san'atlardan yana biri bu *Tavze*, ya'ni alleteratsiya bo'lib, tovushlar ohangdorligi, asosan, bir xil tovushlarning takrorlanishidan hosil bo'lgan ohangdorlikdir, bunda she'rda, jumladan, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil tovushlar takrorlanadi.

Eshqobil Shukur she'riyatidagi alleteratsiyalar, asosan, xalqona ohanglar, xalqona ismlar soyasida paydo bo'ladi. Masalan, uning “*Mangu ayrolik*” nomli she'rida Oybodom ismiga tizilgan, “O” harfi asosiga qurilgan tavzening go'zal namunasi guvohi bo'lamiz:

²

³Шукуров Э. Хамал айвони. –Тошкент: Шарк, 2002. –Б. 160.

*Oltin oyga olma otar Oybodom,
Oybotarda yig'lab yotar Oybodom.
Oyqizlarning oyparisi Oybodom,
Kunbotardan kuyib o'tar Oybodom.
Olma yuzli, bodomqovoq Oybodom,
Yoyiq sochi yonar bayroq Oybodom.
Yil botarda cho'kar qora suvlarda,
Bu dunyoda Oy kabi toq Oybodom⁴.*

Yuqoridagi misralarda *oltin, olma, otar, Oybodom, oybotar, oyqiz, oypari, oy* kabi so'zlar alleteratsiyaga asos bo'lgan.

Yuqoridagi she'rda alleteratsiya faqat bir tovush asosida qurilgan bo'lsa, quyidagi she'rimizda bu jarayon ikki tovush asosida yuzaga kelgan:

*Shikasta-shikasta gul poshikasta,
Shokila-shokila kokillari zar.
Sinsila-sinsila sumbullari zar,
Shikasta-shikasta gul poshikasta...⁵*

Ushbu misralarda alleteratsiya "sh" tovushi asosiga – shikasta-shikasta, poshikasta, shokila-shokila. Hamda "s" tovushi asosiga – sinsila-sinsila, sumbullari so'zlari asosida yuzaga kelgan.

Eshqobil Shukur ijodidagi navbatdagi she'riy san'at bu – *Talmeh*. Arabcha so'z bo'lib, ma'nosi "*chaqmoq chaqilishi*", "*bir nazar tashlash*" demakdir. Badiiy san'at sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashdir. Shoir ijodida talmeh san'ati ishtirokida bir qancha she'riy namunalarni uchratamiz. Odatda, shoir turli mavzularda, turli insonlarga murojaat qilish orqali talmehdan foydalansada, diniy-ma'rifiy she'rlari bu borada yetakchi o'rinda deb ayta olamiz.

Bunda shoir, asosan, Payg'ambarlarga, pirlarga murojaat qiladi. Eshqobil Shukurning "*O'ttiz ikki tish dostoni*", "*Mangu yurt*", "*Asorat*" nomli she'rlari bunga misol bo'la oladi.

*Yurakka qadalib yotgan toshlarni
Birma-bir sug'urib olganday go'yo.
Shayx Uvays ushatar durday tishlarin,
Qonga botar tilin ostida dunyo.
....Shayx Uvays tishlarin sug'urar tezlab,
Havoda qanotday ko'karar har tish.
So'ng yetti vodiyan Simurg'ni izlab,
Uchib borayotir o'ttiz ikki qush⁶.*

Ushbu she'rda talmeh uch o'rinda qo'llangan: 1) Uvays Qaraniy shaxsi; 2) Simurg' qushi bilan bog'liq afsona; 3) Uvays Qaraniyning Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ishida o'z tishlarini sug'urib tashlagani voqeasi;

Bundan tashqari, shoirning "*Asorat*" nomli she'rini ham keltirishimiz mumkin:

*Muhammad payg'ambar g'azotdan qaytdi,
Suvorov qaytadi qaytganday ishdan.*

⁴ ШукуровЭ. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 68

⁵ ШукуровЭ. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 55

⁶ ШукуровЭ. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 46.

*Che Gevara qaytdi, Robin Gud qaytdi,
Eshqobil qaytmadi hamon urushdan*⁷.

Ushbu misralarda Muhammad (s.a.v) Paygʻambar hamda gʻazot jangi anʻanaviy talmeh namunasi hiboblanadi. Ammo Suvorov, Che Gevara va Robin Gud kabi shaxslarga ham talmeh sifatida qarasa-da ularni zamonaviy talmeh namunasi sifatida olishimiz mumkin.

Shoir ijodidagi keyingi sheʻriy sanʻat bu – *Nido*. Boshqa sheʻriy sanʻatlardan bevosita inson qalbidagi his va hayajonlarni ochiq va kuchli tasvirlab bera olish imkoniyati bilan ajralib turadi.

Insonning ichki tuygʻulari junbushga kelganida lirik qahramon olamdagi har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi istalgan narsaga, oʻzining qalbiga, suhbatdoshiga murojaat etishi mumkin.

Shoir ijodida nido sanʻati turli holatlarda turli narsalarga: *koʻngil, nafs, ruh, jon, dunyo; qushlar, gullar, daraxtlar, daryo, yomgʻir, tuproq, tabiat; Xudo, ona, singil, sevgili yor* kabilarga murojaati asosida yuzaga kelgan. Quyida shoirning nido sanʻatiga asoslangan bir nechta sheʻrlarini koʻrib oʻtsak.

*Ey Daryo, rizq toʻla tugʻyon oʻzingsan,
Ey Tuproq, basharga tuz-non oʻzingsan.
Ey Shamol, ishq toʻla giryon oʻzingsan,
Men esa shoirga oʻxshamasman hech*⁸.

Ushbu misralarda daryo, tuproq, shamol soʻzlari asosida nido sanʻati yuzaga kelganini koʻramiz. Keyingi misralarda ham xuddi shu nidoga asoslangan silsila yuzaga keladi:

*Ey Daraxt, gullasang shabnamlar kuldi,
Ey Lola, dogʻingda ne gʻamlar kuldi,
Ey Yomgʻir, tomchingda odamlar kuldi,
Men esa shoirga oʻxshamasman hech.*

Ushbu misralarda daraxt, lola, yomgʻir kabi soʻzlar nido sanʻatini yuzaga kelishiga sabab boʻlgan. Keyingi misralarda esa undalmalar tabiat unsurlaridan-da kengroq narsalarga koʻchadi:

*Haddingga marsinma, ey abadiyat,
Koʻnglimga doʻq qilma, qolip tarbiyat,
Sen asl shoirsan, ona Tabiat,
Men esa shoirga oʻxshamasman hech.*

Demak, ushbu misralardagi nido sanʻati abadiyat, tarbiyat, ona tabiat kabi buyuk tushunchalar orqali yuzaga kelganini koʻrishimiz mumkin.

Shoirning “*Ishq suhbatlari*” nomli sheʻrida esa nido sanʻati oʻziga xos undalmalar asosida vujudga kelganki, bu undalmalar oʻz oʻrnida nido sanʻati bilan birgalikda tanosub sheʻriy sanʻatini ham, shu bilan birga tadrij (Voqea, maʼno yoxud vaziyatni asta-sekinlik bilan darajama daraja rivojlanish jarayonida koʻrsatish sanʻati) sheʻriy sanʻatini ham yuzaga keltirganini guvohi boʻlar ekanmiz, shoir mahoratiga tahsin aytmay ilojimiz yoʻq, albatta:

– *Ay, gul, kiymishing oʻn sakkiz bahor, ay, gul,
Soʻyla, qaysi jahon saning qulingdur?
– Ibtidong tufrogʻdir, intihong ham shul,*

⁷ Шукуров Э. Яшил Кушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б.128.

⁸ https://t.me/Eshqobil_Shukur_ijodi

Bilsang yetti olam maning molimdur.

– *Ay, sarv, yafrog'lari ishq uyi, ay, sarv,*

So'yla qaysi bo'ston saning bog'ingdur?

– *Ey, sen, ko'nglin ishq o'z joniga sarf,*

Bir nasim uvoldur senga bog'imdin.

– *Ay, moh, ming kechani yopingan, ay, moh,*

So'yla, zulfing ichra necha to'fondur?

– *Ey, sen, o'z-o'ziga topingan gumroh,*

Har tola sochimda bir tong nihondur.

– *Ay, shams, ming yulduzni iyartgan, ay, shams,*

So'yla, hayot qayda, o'lim qaydadir?

– *Ey, sen, o'z-o'zini etolmagan jam,*

Hayot osmondayu, o'lim yerdadur⁹.

Yuqoridagi baytlarda gul, tufrog', sarv, sen, moh, shams kabi so'zlar she'rda nido, tanosub, tadrij (ya'ni u avval gul kabi edi so'ng tufrog'-la sarvga aylandi) badiiy san'atlarini yuzaga keltirgan bo'lsa, ibtido va intiho, kecha va tong, hayot va o'lim, osmon va yer kabi so'zlar tazod san'atini, ay, gul; ay, tufrog'; ay, sen; ay, moh; ay, shams kabi so'zlarning har bir bayttagi o'zaro takrori takrir(so'zlar takroriga asoslangan san'at turi) san'atini vujudga keltirgan.

Tazod – narsa-hodisalarni zidlash, qarshilantirish san'ati ham Eshqobil Shukur ijodidagi eng sermahsul badiiy san'atlardan biri hisblanadi. Shoir she'rlarining deyarli barchasida tazod san'ati namunalari uchratishimiz mumkin, zero shoir biror voqea-hodisa yoki narsani tasvirlar ekan, albatta uni yaxshi yoki yomon narsalarga barobar tarzda tasvirlaydi. Shoirning bunday she'rlariga namuna sifatida uning quyidagi sh'erini misol qilishimiz mumkin:

Tikondan gul so'rab gavhar topgan men,

Ilondan bol so'rab javhar topgan men,

Qabrdan nur so'rab qamar topgan men,

Meni kechiringlar, mazlum tuyg'ular¹⁰.

Baytlardagi tikon va gul so'zlari bevosita tazod san'atini vujudga keltirgan bo'lsa, ilon va bol, qabr va nur so'zlari bilvosita holatda mantiqiy tazodni yuzaga keltirganini ko'rishimiz mumkin.

Hayot tarozisi – yelkamda xurjun –

Bir ko'z yengil shodlik, bir ko'z og'ir g'am.

Bu dunyo bo'm-bo'shdir, men esa gavjum,

Qushlar qo'nalg'asi yetim qobirg'am¹¹.

Ushbu misralarda yengil shodlik va og'ir g'am so'zlari birikmali holda, bosh-bo'sh va gavjum so'zlari esa yakka holda tazod san'atini vujudga keltirgan.

Shoir Eshqobil Shukur ijodidagi badiiy san'at turlarini tahlil qilar ekanmiz, shoirning bir she'rida bir necha she'riy san'atlar borligining guvohi bo'lamiz. Shuni ham ta'kidlashimiz lozimki, qo'llanilgan har bir badiiy san'atga ijodkor tomonidan o'zgacha mahorat va tajriba bilan yondashilgan. Shoir ijodidagi bu nozikliklar o'quvchini yanada o'ziga jalb qiladi, she'riyat olamida baland parvozlar qilishiga qanot bag'ishlaydi!

⁹ ШукуровЭ. Яшил Кушлар. –Тошкент: Ёзувчи, 1995. –Б.11.

¹⁰ ШукуровЭ. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 115.

¹¹ ШукуровЭ. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 71.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шукуров Э. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002.
2. Шукуров Э. Сочлари сумбул-сумбул. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988.
3. Яшил Қушлар. –Тошкент: Ёзувчи, 1995. –Б.11.
4. Bahodir Karim. Istiqlol adabiyoti: nazm va nasr. – Toshkent, 2021.
5. Азимов У. Оқ йўл. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Тошкент, 1984.